Mehmonxona

Versiya: 2026-11-03 (mehmonxona 8e11f87). Videolar: softdoc.uz/qollanmalar. Barcha ism, tovar va summalar — demo uchun uydirma ma'lumot.

Mehmonxona boshqaruvi: shaxmatka va bronlar, joylashtirish va folio, kassa, tozalik, E-mehmon va turistik yig'im, tungi audit va hisobotlar. Har bo'lim bo'yicha qisqa video va qadamma-qadam ko'rsatma.

Mundarija


- Boshlash: Tizimga kirish va bosh sahifa
- Bron va mehmon: Shaxmatka va yangi bron; Joylashtirish (check-in) va folio; Mehmonni chiqarish (check-out)
- To'lov va kassa: To'lov, chegirma va kassa
- Xonalar va tozalik: Xonalar holati va tozalik; Xona turlari, xonalar va narxlar
- E-mehmon va hisobotlar: E-mehmon va turistik yig'im; Tungi audit va rahbar hisobotlari
- Sozlamalar: Sozlamalar va birinchi sozlash ustasi
- Ko'p so'raladigan savollar

Boshlash

Tizimga kirish va bosh sahifa

Ochiq demo, xodim logini, bugungi bandlik, kelish-ketish, daromad, xonalar holati va qidiruv. Video: 2:11.

1. Demo: mehmonxona.softdoc.uz/demo → «Demo'ni ochish» (parolsiz). O'z mehmonxonangizda har xodim o'z login-paroli bilan kiradi va faqat o'z roliga ruxsat berilgan bo'limlarni ko'radi.
2. Bosh sahifa tepasida: bugungi bandlik (band xonalar va o'tgan haftaga o'zgarish), kelayotganlar, ketayotganlar (hisobi yopilmaganlari qizil), bugungi daromad, ADR va RevPAR.
3. «Bugungi harakat»: Kelish, Ketish, Ichkarida tablari; kelgan mehmonni shu yerning o'zidan «Joylashtirish».
4. «Xonalar holati» plitkasini bosing — holatni (iflos, toza, tekshirildi, ta'mirda) shu yerda o'zgartirasiz.
5. Pastda oldindagi 14 kunlik bandlik va E-mehmon eslatmasi (eng yaqin muddat).
6. Qidiruv: mehmon ismi, xona yoki bron raqami → mos bronlar ro'yxati.



Bosh sahifa: bandlik, kelish-ketish, daromad


> **Eslatma.** Ochiq demodagi ma'lumot uydirma va har kecha tiklanadi; demoda parol, foydalanuvchi, sozlash ustasi va E-mehmon eksporti yopiq.

Bron va mehmon

Shaxmatka va yangi bron

Xonalar-kunlar jadvali, bron kartasi, bo'sh katakdan bron, narx hisobi va mehmon ma'lumotlari. Video: 2:06.

1. Shaxmatka: ranglar — joylashgan, to'langan bron, to'lanmagan bron (punktir), chiqib ketgan, ta'mirda. Kun ustida bandlik foizi; 14 yoki 30 kun ko'rinishi.
2. Bronni bossangiz o'ngda qisqa karta: xona, manba, sanalar, mehmon hisobi qoldig'i; joylashtirish, chiqarish yoki xizmat qo'shishga o'tish.
3. Yangi bron: bo'sh katakni bosing (xona va kelish sanasi o'zi qo'yiladi) yoki «Yangi bron».
4. Ketish sanasi, kattalar/bolalar, qo'shimcha karavot, manba; narx tarif bo'yicha darhol hisoblanadi (yoki o'zingiz kechalik narx yozasiz).
5. Mehmon: ism, familiya, fuqarolik, tug'ilgan sana, hujjat, telefon; avval kelgan mehmonni ro'yxatdan tanlash mumkin. Chet ellik uchun «Xorijiy mehmon uchun (E-mehmon)» maydonlari.
6. «Bron qilish» → bron raqami beriladi va bron kartasi ochiladi.




Yangi bron: xona, sanalar va narx hisobi

> **Eslatma.** Ism, hujjat, viza raqami va telefon bazada shifrlangan holda saqlanadi. Bron paytida har kecha narxi muzlatiladi — keyingi tarif o'zgarishlari eski bronga ta'sir qilmaydi.

Joylashtirish (check-in) va folio

Mehmonni joylashtirish, folioga xizmat yozish, bronni o'zgartirish, xona almashtirish va folioni chop etish. Video: 2:09.

1. Bosh sahifa yoki bron kartasida «Joylashtirish» (kelish kunidan boshlab). Kirish vaqtidan oldin kelsa — erta kirish haqi sozlamaga ko'ra folioga yoziladi.
2. Folio (mehmon hisobi) → «Xizmat yoki to'lov qo'shish»: tur (minibar, restoran, xizmat ...), summa, izoh → «Qo'shish». O'ngda yig'ma qoldiq — mehmon qarzi.
3. «Bronni o'zgartirish»: ketish sanasi, mehmonlar soni, yangi kechalik narx. Folioga yozilgan kechalar narxi o'zgarmaydi.
4. «Xonani almashtirish»: mehmonni boshqa xonaga ko'chirish, folio bron bilan qoladi.
5. «Folioni chop etish» — mehmonxona nomi, bron, xizmatlar va qoldiq bilan hisob varag'i.




Folio: xizmatlar va qoldiq

Mehmonni chiqarish (check-out)

Yakuniy hisob, kech chiqish haqi, to'lov va xonaning tozalashga o'tishi. Video: 1:25.

1. Bosh sahifa → «Ketish» → «Chiqarish» (yoki bron kartasidagi «Chiqarish» bo'limi).
2. Folioga hali yozilmagan xona haqi, kech chiqish haqi (bo'lsa) va «To'lanishi kerak» summasi ko'rinadi.
3. To'lov summasi, usuli va kassasini tanlab «Chiqarish».
4. Xona «iflos» holatiga o'tadi va tozalash vazifalariga tushadi.



Chiqarish: to'lanishi kerak summa


> **Eslatma.** Ortiqcha to'lov bo'lsa, dastur uni mehmonga qaytarishni eslatadi (folio → «Qaytarish»).

To'lov va kassa

To'lov, chegirma va kassa

Foliodan naqd, karta va o'tkazma to'lovi, chegirma, kassalar qoldig'i va kunlik to'lovlar. Video: 1:41.

1. Folio → tur «To'lov», summa, to'lov usuli; usulga bog'langan kassa o'zi tanlanadi → «Qo'shish».
2. Karta va o'tkazma — bank hisobiga, naqd — markaziy seyfga (bog'lash Sozlamalar → To'lov va xizmatlar).
3. Chegirma — folio qatori, sababini izohga yozing; hisobotlarda daromaddan ayiriladi.
4. Kassa sahifasi: har kassa qoldig'i, kunning to'lovlari usul bo'yicha, har to'lov (vaqt, mehmon, bron, usul, summa); davr tanlanadi.



Kassa: qoldiqlar va kunlik to'lovlar


> **Eslatma.** To'lov usuli va kassa faqat «To'lov» va «Qaytarish» uchun.

Xonalar va tozalik

Xonalar holati va tozalik

Tozalash vazifalari, tekshiruv, ta'mirga chiqarish va shaxmatkadagi ko'rinishi. Video: 1:23.

1. «Xonalar holati»: iflos, toza, tekshirilgan va ta'mirdagi xonalar soni.
2. «Vazifalar»: kunlik tozalash, chiqishdan keyingi tozalash, tekshirish; bugun mehmon keladigan xona belgilangan.
3. Xizmatchi «Tozalandi», tekshiruvchi «Tekshirildi» yoki «Qayta tozalash».
4. Ta'mir: xona plitkasida sababini yozib «Ta'mirda» — xona sotuvdan vaqtincha chiqadi, shaxmatkada chiziqli fon bilan ko'rinadi.



Xonalar holati va vazifalar


> **Eslatma.** Tungi audit mehmon qoladigan xonalarni har kuni kunlik tozalashga o'zi qo'yadi.

Xona turlari, xonalar va narxlar

Xona turi va sig'imi, xonalarni bir yo'la qo'shish, dam olish kechasi narxi va mavsumiy narxlar. Video: 2:30.

1. Sozlamalar → Xonalar → «Yangi xona turi»: nomi, kattalar/bolalar sig'imi, kechalik narx, qo'shimcha katta/bola/karavot narxi, tavsif → «Qo'shish».
2. «Bir yo'la bir nechta xona qo'shish»: birinchi va oxirgi raqam, qavat, tur (masalan 401–404, 4-qavat).
3. Sozlamalar → Narxlar: har tur uchun oddiy va dam olish kechasi narxi; qaysi kechalar dam olish ekanini belgilang.

4. «Mavsumiy narxlar»: nomi, boshlanish va tugash sanasi, aniq narx yoki asosiy narxdan foiz (masalan +20%).



Mavsumiy narx qo'shildi


> **Eslatma.** Bron tarixi bor xona o'chirilmaydi — faqat faolligi o'chiriladi. Narx va mavsum o'zgarishi faqat yangi bronlarga ta'sir qiladi.

E-mehmon va hisobotlar

E-mehmon va turistik yig'im

Chet ellik mehmonlar ro'yxati, CSV va chop etish, «yuborildi» belgisi, oylik turistik yig'im hisoboti. Video: 1:57.

1. Menyudagi E-mehmon raqami — hali ro'yxatdan o'tkazilmagan chet ellik mehmonlar.
2. E-mehmon sahifasi: ustunlar ro'yxatga olish formasi tartibida; «CSV yuklab olish» yoki «Chop etish».
3. Ma'lumotni emehmon.uz ga kiritgach, mehmonlarni belgilab «Belgilanganlar E-mehmonga yuborildi».
4. Hisobotlar → «Turistik yig'im»: oy tanlanadi; BHM, stavkalar, mehmon-kechalar va jami yig'im.



Turistik yig'im hisoboti


> **Eslatma.** E-mehmon tizimining ochiq API'si yo'q — ma'lumot qo'lda kiritiladi. Yig'im stavkasi joy turi va xonalar soniga qarab Sozlamalar → Soliq va yig'imdan olinadi; qoidani lex.uz bilan tekshiring.

Tungi audit va rahbar hisobotlari

Bandlik, ADR, RevPAR, xona daromadi, tungi audit, manba bo'yicha daromad va bronlar ro'yxati. Video: 1:47.

1. Hisobotlar: bandlik (sotilgan/mavjud tun), ADR, RevPAR, xona daromadi (chegirmalar ayirilgan).
2. Tungi audit har kecha sozlamadagi vaqtda o'zi ishlaydi; kerak bo'lsa «Tungi auditni yurgizish» bilan qo'lda.
3. «Manba bo'yicha daromad»: har kanaldan tunlar va summa.

4. Davr (dan–gacha) → «Ko'rsatish». Bronlar ro'yxati holat bo'yicha: bron, joylashgan, chiqdi, bekor, kelmadi.



Rahbar ko'rsatkichlari


> **Eslatma.** Bekor qilingan va kelmagan bronlar ko'rsatkichlarga kirmaydi.

Sozlamalar

Sozlamalar va birinchi sozlash ustasi

Sozlamalar bo'limlari, ish qoidalari, to'lov usullari va 5 qadamli sozlash ustasi. Video: 1:59.

1. Sozlamalar: xonalar, narxlar, qoidalar, soliq va yig'im, to'lov va xizmatlar, hujjatlar; xodimlar — «Xodimlar va rollar».
2. Qoidalar savol-javob ko'rinishida (kirish/chiqish vaqti, erta kirish va kech chiqish haqi); «Asosiy» va «Hammasi» rejimi.
3. To'lov va xizmatlar: to'lov usullari va ularning kassasi, bron manbalari, folio xizmatlari.
4. Birinchi sozlash ustasi: profil → xona turlari → xonalar → narxlar → to'lov usullari → «Ishni boshlash».



Sozlash ustasi: xona turlari qadami

> **Eslatma.** Har o'zgarish audit jurnaliga yoziladi.

Ko'p so'raladigan savollar

Demo'ga qanday kiraman?

mehmonxona.softdoc.uz/demo → «Demo'ni ochish». Parol kerak emas; ma'lumot har kecha tiklanadi.

Bron narxi tarifni o'zgartirganimdan keyin o'zgaradimi?

Yo'q. Bron paytida har kecha narxi muzlatiladi; yangi tarif va mavsum faqat yangi bronlarga ta'sir qiladi. Narxni bron kartasidagi «Bronni o'zgartirish» bilan qo'lda o'zgartirish mumkin.

Mehmon ertaroq keldi yoki kech chiqdi — haq qanday olinadi?

Sozlamalar → Qoidalar → erta kirish va kech chiqish haqi (olinmaydi, yarim yoki to'liq kecha narxi). Haq joylashtirish yoki chiqarishda folioga o'zi yoziladi.

E-mehmonga ma'lumot avtomatik yuboriladimi?

Yo'q, E-mehmonning ochiq API'si yo'q. Ro'yxatni CSV yoki chop etilgan holda olib emehmon.uz ga kiritasiz va dasturda «yuborildi» deb belgilaysiz.

Tungi auditni har kuni qo'lda bosish kerakmi?

Yo'q, u har kecha sozlamadagi vaqtda avtomatik ishlaydi. Tugma faqat kerak bo'lsa hozir yurgizish uchun.

Xonani butunlay o'chirib bo'lmayapti.

Bron tarixi bor xona o'chirilmaydi — tarix va hisobotlar saqlanishi uchun. Sozlamalar → Xonalar → «Faolligini o'chirish».

Savol qolsa: softdoc.uz → Aloqa. Bepul demo: mehmonxona.softdoc.uz/demo